

## ADABIYOT FANINING O'QITISH METODIKASI

*Mamajanova Shaxnaza Juraxonovna**Toshkent viloyati Olmaliq shahar kasb-hunar maktabi**Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiyot fanining o'qitish metodikasi,adabiyot fanini o'qitishda ishlatiladigan zamonaviy interfaol metodlar,fanni o'qitishdan asosiy maqsad hamda adabiyot fanining o'ziga xosligi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Adabiyot, o'qitish metodikasi, ta'lim-tarbiya, pedagogika, pedagogik texnologiyalar, tur, janr, sa'nat.

Adabiyot o`qitish boshqa fanlarni o`qitishdan anchayin keskin farq qiladi. Shunga ko`ra uni fan sifatida qaraydiganlar bir guruhni tashkil etsa, adabiyot o`qitishni san`at turi sifatida baholab, adabiyot o`qituvchisining ishini ham san`atkorona bir ish sifatida baholaydiganlar kam emas. Demak, ular adabiyot o`qitish metodikasini ham san`at bilan tenglashtirishadi. Amaliyotchilik nuqtai nazaridan qaraydiganlar esa adabiyot o`qitish metodikasini darslarning o`tilishiga bevosita yordam beradigan, har bir darsning yaxshi va samarali bo`lishiga amaliy ko`mak bera oladigan soha deb bilishadi. Adabiyot o`qitish metodikasi birinchi navbatda adabiyot o`qitishning, ya`ni adabiy ta`limning maqsadi va mazmuni haqidagi fandir. Ma`lumki, adabiyot ta`limning turli bosqichlarida xuddi boshqa predmetlar kabi o`sib kelayotgan avlod - o`quvchilarga mo`ljallangan. Ta`lim jarayonidagi barcha fanlarning asosiy maqsadi va mohiyati o`quvchilarda - o`sib kelayotgan yosh avlodda muayyan sohalarga oid bilimlarning asoslarini shakllantirish, shularning negizida ularning boy ma`naviy olamini yaratishdan iboratdir. Bu vazifani amalga oshirishda badiiy adabiyot bilan teng keladigan birorta soha yo`q, deb ayta olamiz.

A.Zunnunov: «Adabiyot o`qitish usuli pedagogika fanining uzviy qismi bo`lib, badiiy adabiyotni tadqiq etadi, adabiyot o`qitish shartlari va usullarini ilmiy asosda ishlab chiqish va tatbiq etish, sinfda va uyda o`qish, shuningdek, sinf va mактабдан tashqari mashg`ulotlarning shakli va usullarini ishlab chiqish bilan shug`ullanadi. Uning asosini badiiy asarni ta`lim va tarbiyaning muhim vositasi sifatida o`rganish, o`quvchilarni estetik tarbiyalash jarayoni tashkil qiladi. Shu jarayonda o`qituvchi yozuvchi yaratgan badiiy obrazlarning ahamiyatini o`quvchilar ongiga singdiradi, badiiy obrazning mohiyatini ochadi, o`quvchilarning ma`naviy dunyosini boyitadi». Nazarimizda, bu ta`riflarda fanning asosiy mohiyati ancha yorqin ko`rsatib berilgan. Adabiyot o`qitish metodikasi fani birinchi navbatda bo`lajak adabiyot o`qituvchilarining kasbiy shakllanishlari va dastlabki mahorat qirralarini o`zlashtirishlari uchun imkon beradigan fandir. Bu fan o`quvchi yoshlarning adabiy

rivojidagi o`ziga xos qonuniyat va qoidalarning anglab yetilishi uchun omil bo`ladi. Uning o`qituvchi va o`quvchi hamkorligining asoslarini tushunishda muhim bo`g`in ekanligi ham katta ahamiyatga ega. Adabiyot o`qitish metodikasi fani bu fanning tarixi va rivojlanish bosqichlarini ko`rsatish, bu bosqichlarning har biriga xos bo`lgan asosiy unsurlarni tahlil qilish, badiiy asarni tahlil qilish va uni o`quvchilar tomonidan qabul qilinishidagi o`ziga xos xususiyatlarni ko`rsatish, badiiy asarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyatlariga e`tibor berish, ta`lim bosqichlarida faqat badiiy asarning o`zini emas, balki ularga bog`liq ravishda adabiy-nazariy tushunchalarni xam o`rganish zaruriyatini va yo`l-yo`riqlarni ko`rsatish, adabiyot darslarini tashkil etish, adabiyotdan sinfdan tashqari va mustaqil ishlarni tashkil etish, ularning og`zaki va yozma nutqlarini o`stirish yo`llarini ko`rsatish bilan kifoyalanmasdan o`quvchilarning o`z ustilarida muntazam ishslash, mustaqil ijodiy ishlarni tashkil etish yo`llarini ko`rsatishi bilan ham muhimdir. Bo`lajak adabiyot o`qituvchilari o`z ish faoliyatlarida o`quv-tarbiya jarayonlarining insonparvarlashuviga, ta`lim jarayonida har bir o`quvchining alohida, o`ziga xos bo`lgan tabiiy-ijodiy imkonlariga e`tibor berishi maqsadga muvofiq bo`ladi. Bizning maktablarimizda badiiy adabiyot yaxshi insoniy fazilatlarni targ`ib qilishga, urushni, zo`ravonlikni qoralab, tinchlikni, xalqlarning osoyishta hayoti va o`zaro do`stligini ulug`laydigan, xunuklikdan nafratlanib, go`zallikni targ`ib etadigan, o`sib kelayotgan avlodga yuksak ma`naviy fazilatlarning shakllanishi va rivojlanshiga imkon beradigan xislatlari bilan e`tiborlidir. Adabiyot fanining o`ziga xosligi shundaki, unda boshqa fanlar bilan aloqadorlik bu fanning tabiatiga singdirilgan. Demak, bu imkoniyatdan xam unumli foydalanish joiz. Uning ijtimoiy-gumanitar yo`nalishdagi fanlar bilan yaqinligi, ayniqsa, ona tili, tarix, san`at yo`nalishidagi fanlar bilan aloqadorligini isbotlab o`tirish zarurati yo`q. Ayni paytda uning geografiya, biologiya, fizika, matematika singari fanlar bilan aloqador jixatlaridan ham unumli foydalanish, bu bog`lanishlarning ichki mohiyatini ko`proq ko`rsatish, amaliyotga ko`proq joriy etish zarurati bor. Bir xil mavzuni bir xil hajmdagi vaqt oralig`ida turlicha o`qituvchilarning nihoyatda turli-tuman tarzda yoritib berishlari hayotda ko`p kuzatiladigan hodisa. Ularning orasida eng ma`quli hozirgi jamiyatimiz muammolari bilan ko`proq aloqadorlikni ta`minlagani, zamonaviy texnologiyalardan o`rinli va unumli foydalanganlari, bolalarning yosh xususiyatlari, adabiy tayyorgarliklariga tayanib turib ularning mavzuga ham, adabiyot fanining o`ziga ham qiziqishlarini eng ko`p darajada oshira olganlaridir. Aslida adabiyot o`qitishning bosh yo`nalishi ta`limning turli bosqichlarida o`quvchilar ongiga badiiy asarning mo`jizakor ta`sir kuchini amaliy jihatdan ta`minlashga qaratilgan. Maktabgacha tarbiya muassasalari, boshlang`ich ta`lim, umumiy o`rta ta`lim maktablari, akademik litsey va oliy ta`limidagi adabiy ta`limning uzviyligi va uzlusizligining natijasi o`sib kelayotgan yosh qalbda go`zallikka bo`lgan ijobiylar va ijodiy munosabatni shakllantirishdan, ularga badiiy asarga - kitobga bo`lgan mehr va

muhabbatni o`stirishdan, bularning zamirida esa undagi badiiy-estetik didni takomillashtirishdan iborat. Xuddi mana shu nuqtalar bo`lajak adabiyot o`qituvchilarini tayyorlash jarayonida diqqat markazida turishi lozim. Bo`lajak adabiyot o`qituvchisining adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy jarayon haqidagi ilmiy-nazariy qarashlari qanchalik asosiy va muhim bo`lishidan qat`iy nazar, ularning o`zi bilan kifoyalanib qolish pedagogik faoliyatdagi tegishli maqsad va vazifalarni amalga oshirish imkonini bermaydi. To`laqonli muvaffaqiyat qozonish uchun ularning pedagogika va psixologiya turkumidagi, ayniqsa bolalarning yosh fiziologiyasi, ularning olamni qabul qilish va o`zlashtirish xususiyatlari, qiziqishlari haqidagi asosiy ma`lumotlarni beradigan fan asoslaridan xabardorliklari ham taqozo etiladi. Badiiy adabiyotning inson ruhiyatini, hatto uning shaxsiyatining shakllanishi va rivojidagi o`rni beqiyosdir. Agar zamondoshimiz S.Sayyid aytganidek, bola «diliga nedir yuqtirsa», adabiyot muallimi o`z vazifasini ado etgan, adabiyot darslarining samarasini ta`minlangan bo`ladi. Ko`plab buyuk shaxslar mashhur bo`lishlarida, o`zlari erishgan va yetishgan oliy darajalarda badiiy adabiyotning o`rni va ahamiyatini e`tirof etishadi. Masalan, Alisher Navoiy yuz mingdan ortiqroq baytni yoddan bilgan. Bu baytlarning eng sara, eng nodir badiiy durdonalar bo`lganligiga shubha yo`q. O`quvchilardagi barqaror g`oyaviy, ma`naviy-axloqiy va estetik ishonch-e`tiqodlarning shakllanishi, ularning eng muhim hayotiy tushunchalar mag`zini chaqa olishi ma`lum ma`nolarda adabiyot o`qituvchisining mahoratiga bog`liqdir.

Shunga ko`ra ta`lim bosqichlari uchun yaratiladigan darslik va o`quv qo`llanmalari, ularning tarkibiga kiradigan badiiy asarlarning namunalari o`quvchilarning adabiy tayyorgarligi va didlariga mos va munosib bo`lishi, ularning barkamol inson sifatida shakllanishlari va kamol topishlarida muhim omil vazifasini ado etishi kerak. Juhon hamjamiyati bir-biriga intilishi, bu ayni paytda bir-birini boyitish jarayoni hamdir. Bunda badiiy adabiyotning o`ziga xos o`rni bor. Qolaversa, boshqalar tajribasini o`rganish har doim insoniyatta yutuq va yangilanish omili bo`lgan. Juhon pedagogikasi endilikda hamkorlikni asosiy tayanch nuqtasi, deb e`tirof etmoqda. «Hamkorlik pedagogikasi» degan alohida tushuncha va atamaning paydo bo`lganligi beziz emas. Bu o`qituvchi va o`quvchi orasidagi munosabatlarning yangicha bosqichini anglatadi. Demak, endilikda pedagogik jarayonda «hokim-tobe»lik emas, tom ma`nodagi hamkorlik yuzaga keldi. Bu adabiy ta`limda, ayniqsa, ayricha ahamiyat kasb etadi. Zero, badiiy adabiyotni o`qish, o`rganish hamma payt ijodiy jarayondir. Bu jarayonda o`quvchilarning milliy qadriyatlar, asriy urf-odatlar bilan tanishishi, yaqinlashuvi jonli tarzda amalga oshadi. Bo`lajak adabiyot o`qituvchisi uchun badiiy adabiyotning o`ziga xos tomonlarini bilish, anglab yetish qanchalik muhim va ahamiyatli bo`lsa, ta`limning turli bosqichlarida adabiyot o`qitishning o`ziga xos qonuniyat va xususiyatlari bilan bog`liq siru-asrorlarni egallash ham shunchalik muhimdir. Ta`limning turli bosqichlarida bolaning yosh xususiyatlarigina emas, hatto

asarning janri, uslubi ham uni o`qitish, o`rgatishda o`ziga xos yondashuvlar bo`lishini taqozo etadi. Qaysi bir asarni o`rganishda sharh va izohlarning o`rni kattaroq bo`lishi, boshqa bir asarni o`rganishdan oldin ifodali o`qish maqsadga muvofiq bo`lishi mumkin. Qay holatlarda biografik metod o`rinli bo`lsa, qaysi o`rinlarda estetik tahvilning o`mini bosadigan biror usul bo`lmasligi ham tabiiydir. Bularning barchasi adabiyot o`qitish metodikasining fan sifatidagi o`rni va ahamiyati qanchalik katta ekanligini ko`rsatib turibdi. Mazkur kurs xuddi shuning uchun ham alohida dolzarblik kasb etadi. Bularning yonida badiiy asarni o`qish, uni tushunish muammosining ham borligini e`tirof etishga to`g`ri keladi. Badiiy adabiyot so`z san`ati sifatida kitobxonning, uning ma`naviy olamining shakllanishiga kuchli ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Agar qabul qilishning mutlaqo individual xususiyatga ega ekanligini nazarda tutadigan bo`lsak, badiiy asarni o`qish, uni tushunish va «hazm qilish»ning naqadar katta ahamiyat kasb etishini tasavvur etishimiz qiyin kechmaydi.

Taniqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov uqtirib o`tganidek: «Adabiyot o`quvchini tarbiyalash uchun uning ongi, fikrigagina emas, qalbiga, zavqiga, tuyg`ulariga ham ta`sir etishi kerak. Shunday asarlarga chinakam san`at namunasi deb atalish huquqiga ega». Biz ixcham tarzda adabiyot o`qitish metodikasi fani zimmasiga yuklatilgan vazifalarni shunday shakllantirishimiz mumkin:

Adabiyot predmetining ta`lim bosqichlarida nima uchun o`rganish zarurligini asoslash, ya`ni adabiyot o`qitishning maqsad va vazifalarini muayyanlashtirish.

Adabiy ta`lim mazmunini aniqlash. O`quv dasturlarining tarkibi va mazmunini asoslash, o`quvchilar uchun yaratiladigan darslik. o`quv qo`llanmalariga qo`yiladigan talab va me`yorlarni o`rganish. Ayni paytda o`quvchilarning muayyan ta`lim bosqichida o`zlashtirishi lozim bo`lgan adabiy bilimlari, ularga bog`liq holda egallanishi lozim bo`lgan ko`nikma va malakalarining hajmi belgilanadi. Metodika fani adabiy ta`limning o`ziga xos yo`l va usullarini o`rganish bilan ham shug`ullanadi. Unda alohida darslarni tashkil etish, unga qo`yiladigan talablar ham ishlab chiqiladi.

### Xulosa:

Metodist olim S.Matjonov to`g`ri ko`rsatganiday: «Dastur va darsliklarda adabiyotning tasviriy san`at, tilshunoslik, musiqa, estetika, tarix, ruhshunoslik, kino san`ati bilan bog`liqligi yetarli darajada o`z ifodasini topmagan. Tarixiy mavzudagi asarlar tahlili, tarix, ekranlashtirilgan asarlar tahlili, kino san`ati bilan bog`lanmasa, ko`zlangan natijaga erishib bo`lmagani kabi, adabiy qahramonlarning fe`l-atvori, o`zaro ziddiyatli munosabatlari haqida so`z yuritganda etika va ruhshunoslik fanlari erishgan yutuqlarga tayanilmasa, murod hosil bo`lmaydi. Bizningcha, masalani shunday qo`yish kerakki, o`quvchilar nazariy bilimsiz, badiiy asarni tushuish, tahlil qilish mumkin emasligini anglab yetsinlar».

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Q. Husanboyeva, R. Niyazmetova "Adabiyot o'qitish metodikasi". Toshkent-2013
2. Boqijon To'xliyev " Adabiyot o'qitish metodikasi". Toshkent-2016
3. Yo'ldoshev J, Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lif – sifat kafolati. Toshkent-2018
4. Q.Yo'ldoshev "Adabiyot o'qitish metodikasi". Toshkent-2009
5. Internet ma'lumotlari saviya.uz